



SOLIQ MADANIYATINING YUKSALIB BORISHI NATIJASIDA QO`SHILGAN  
QIYMAT SOLIG'I TUSHUMLAR SAMARADORLIK KO`RSATKICHLARNING  
TAXLILI

**Begmurotov Dilshod Alimdjanovich**

*Sirdaryo viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinbosari*

Tel: +998992350507, e-mail: [dbekmurodov2018@inbox.ru](mailto:dbekmurodov2018@inbox.ru)

**Annotatsiya:** *Jahonda keyingi yillarda qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar soni va byudjetga tushumlar samaradorligi masalalariga qaratilgan ilmiy izlanish hamda maqolalarga alohida e'tibor berilmoqda. Byudjet-soliq siyosatining o`zaro uyg'unligini ta'minlash, soliq ma'murchiligini bugungi kun talablariga moslashtirish, qo`shilgan qiymat solig`ining byudjet daromadlarini shillanishidagi o`rnini kuchaytirish, "uzluksiz qo`shilgan qiymat zanjiri"ni vujudga keltirish, qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar sonining oshishi yoki kamayishi, soliq tushumlarining samaradorlik ko`rsatkichlari kabi masalalar ushbu maqolaning ustuvor yo`nalishlaridan hisoblanadi.*

**Kalit so`zlar:** *Qo`shilgan qiymat solig`ini to`lovchilar sonining oshishi, byudjet daromadlari, tushumlarining samaradorlik ko`rsatkichlari, soliq siyosatining iqtisodiy samaradorligi, QQSdan tushumlarning O'zbekiston Respublikasi, QQSdan tushumlar davlat byudjeti daromadlari shakllanishi.*

**Аннотация:** *Особое внимание в мире уделяется научным исследованиям и статьям, посвященным вопросам эффективности поступлений в бюджет и численности плательщиков налога на добавленную стоимость в последующие годы. Обеспечение согласованности бюджетно-налоговой политики, приведение налогового администрирования в соответствие с требованиями сегодняшнего дня, усиление роли налога на добавленную стоимость в распределении доходов бюджета, создание "непрерывной цепочки добавленной стоимости", увеличение или уменьшение числа плательщиков налога на добавленную стоимость, показатели эффективности налоговых поступлений являются приоритетными направлениями данной статьи.*

**Ключевые слова:** *увеличение числа плательщиков налога на добавленную стоимость, доходы бюджета, показатели эффективности его поступлений, экономическая эффективность налоговой политики, формирование доходов государственного бюджета Республики Узбекистан, поступлений от НДС.*

**Abstract:** *in the world, in the following years, special attention is paid to scientific research and articles aimed at the issues of the number of payers of Value Added Tax and the effectiveness of budget receipts. Issues such as ensuring the harmony of the Budget-Tax Policy, adapting the tax administration to the requirements of today, strengthening the position of the value added tax in the slumping of budget revenues, creating a "continuous value added chain", an increase or decrease in the number of Value Added Tax Payers, indicators of efficiency of tax revenues are considered from the priorities of this article.*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



**Keywords:** *increase in the number of Value-Added Tax Payers, indicators of budget revenues, efficiency of revenues, economic efficiency of tax policy, the formation of revenues from VAT in the Republic of Uzbekistan, revenues from VAT in the state budget.*

Iqtisodiyotning erkinlashuvi jarayonida, qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlovchilar soni oshishi yoki kamayishi, byudjetga tushumlarning samaradorligini taʼminlashni tashkil etishda soliq salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvini yuzaga keladi. Bugungi kunda koʻplab munozaralarga sabab boʻlayotgan soliq tizimi islohiyatining alohida bir yoʻnalishi sifatida qoʻshilgan qiymat soligʻi soliq toʻlovchilar soni va byudjetga tushumlar samaradorligini kompleks-maqсадli dasturi va prognozini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Oʻzbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlash boʻyicha soliq organlari faoliyatidagi eng ustuvor vazifalar, soliq toʻlovchilar bilan manzilli ishlashni tashkil qilish orqali soliq bazasini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bugun jadallik bilan amalga oshirilmoqda va buning natijasida byudjet soliq tushumlarining oʻz vaqtida tushishi taʼminlanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi soliq qoʻmitasining maʼlumotlariga qaraganda qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlovchilar sonini 2023 yil mos davriga nisbatan 2024 yilda hududlarda soliq toʻlovchilar soni oʻsidhini kuzatishimiz mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasida qoʻshilgan qiymat soliq toʻlovchisi sifatida maxsus roʻyxatdan oʻtgan toʻlovchilar soni oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2024 yilda 201 331 nafarni tashkil qilib, 4,8 foizga oʻsishni kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, hududlar kesimida qoʻshilgan qiymat soliq toʻlovchisi sifatida maxsus roʻyxatdan oʻtgan toʻlovchilar soni Toshkent shaharda 8,6 foizga, Toshkent viloyatida 8,3 foizga, Navoiy viloyatida 6,6 foizga, Samarqand viloyatida 6,3 foizga va Sirdaryo viloyatida 5,2 foizga oʻsish kuzatilgan.

Qoʻshilgan qiymat soligʻining soliq toʻlovchilar sonini sohalar kesimida kuzatadigan boʻlsak, transport sohasida 13,1 foizga, xizmat koʻrsatish sohasida 10 foizga, axborot va aloqa xizmati sohasida 8,4 foizga, qurilish sohasida 5,0 foizga va sanoat sohasida 5,2 foizga oʻsganligini soliq sohasidagi olib borilayotgan islohotlarning natijasidan dalolat bermoqda.

Qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlovchilar soni oʻshib borishi ayniqsa sohalar kesimida ham oʻshib borishi quyidagi mezonlarga ijobiy taʼsir etadi:


- Soliq tushumlarining davlat byudjetdagi ulushining ortishiga;
- Uzluksiz soliq zanjirining mustahkamlanishiga;
- Noqonuniy tovar aylanmasiga chek qoʻyilishiga;
- Soliq hisobotlarining tahliliga;

(1-rasm)<sup>96</sup>

<sup>96</sup> Oʻzbekiston Respublikasi soliq qoʻmitasidan olingan maʼlumot asosida muallif ishlanmasi



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR




O'z navbatida qo`shilgan qiymat soliq to`lovchilari soni oshib borishi bilan bir qatorda, 2024 yilda o`tgan yilning mos davriga nisbatan respublika miqiyosida 18 494,5 mlrd so`m soliq to`lovchilarga qo`shilgan qiymat solig`i so`mmasi qaytarilgan bo`lib, ishlab chiqarish sanoatida 12 220,8 mlrd so`m, xizmat ko`rsatishda 2 643,3 mlrd so`m, savdo korxonalariga 1 098,3 mlrd so`m to`g`ri kelmoqda.

Bu o`z navbatida korxonalar ixtiyoriga qolgan so`mmalar hisoblanib, ularni kelajakda yanada rivojlanib ketishiga va sof raqobatni yuzaga keltirib, bozor iqtisodiyotida narxlarning keskin oshib ketishini oldini olgan holda, haqiqiy va sof ishlab chiqaruvchilar bozorni maxsulot bilan ta`minlashga erishiladi. Qolaversa byudjet oldida soliq agentlarining masuliyati biroz oshishini kuzatishimiz mumkin.



## O'zbekistonda 2024 yil III chorak davomida byudjetga tushgan soliq turlarining ulushi to'g'risida.<sup>97</sup>

2024-yil III chorak davomida bujetda tushgan soliq turlarining ulushi (foizda)



Yuqoridagi diagramma malumotidan kurinib turibdiki, 2024 yil III chorak davomida byudjetga tushgan soliq turlarining ulushida ham qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shunday ekan, mamlakatimizda va boshqa chet mamlakatlarda ham bezijga qo'shilgan qiymat solig'iga alohida etibor qaratilmaydi.

Respublikamizda amal qilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, byudjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi. So'ngi yillarda to'g'ri soliqlarning salmog'i yalpi ichki mahsulotda biroz kamayib, egri soliqlar salmog'i oshgan. Bu holda to'g'ri tendensiya mavjuddir, chunki egri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri korxonaning investision faoliyatini susayishiga olib kelmaydi.<sup>98</sup>

Bilvosita soliqqa tortish tizimini, shu jumladan QQSni hisoblash va uni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi sharoitda korxonalar va aholi daromadlarining juda past darajada bo'lishi natijasida, davlat ko'proq bilvosita soliqlarni oshirishga majbur bo'lmoqda. Lekin davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun yuqori darajaga ko'tarishi salbiy oqibatlarga olib kelishi

<sup>97</sup> o'zbekiston respublikasi soliq qo'mitasi ma'lumoti va muallif ishlanmasi

<sup>98</sup> уразматов ж. қўшилган қиймат солиғининг бюджет даромадлари шаклланишидаги ўрни ва мазкур солиқни бюджетга ундириш тартибининг таҳлили //инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – т. 2. – №. 14. – с. 35-38.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR




mumkin. Uning ma'lum darajada iqtisodiy asoslangan, korxonalar moliyaviy holatini va aholi turmushi moddiy darajasini normal xolatda ta'minlaydigan chegarasi bo'lishi lozim.

Byudjet-soliq amaliyoti natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, byudjetga soliq tushumlari tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i muhim o'rin egallaydi. Mazkur soliq bilvosita soliqlar turiga kiradi va dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda amal qiladi.

Jahon soliq amaliyoti tajribalarining tahlili hozirgi kunda soliqqa tortish tizimining uch turi hamda xorijiy mamlakatlar soliq tizimining uch xil modeli amal qilayotganligini tasdiqlaydi.

**Jahon soliq amaliyoti soliqqa tortish tizimining uch turi hamda xorijiy mamlakatlar soliq tizimining uch xil modeli<sup>99</sup>**



O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash jarayoni biznes va iste'molchilar uchun bir nechta jihatdan ta'sir qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i o'zi – bu mahsulot yoki xizmatlar qiymatiga solinadigan soliq bo'lib, uning oxir-oqibat qo'plab berilishidan quyidagilar manfaatdor bo'lishi mumkin:

<sup>99</sup> Muallif ishlanmasi





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



1. **Davlat byudjeti:** QQS ning asosiy qoplab berilishidan davlat manfaatdor bo'ladi, chunki to'langan soliq davlatning byudjetiga tushadi. Bu mablag'lar ijtimoiy loyihalar, infratuzilma, ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalarda ishlatiladi.

2. **Ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar:** QQS o'zgarishidan ko'ra, soliqni hisoblash va qaytarish jarayonlarida, aynan soliqni qonuniy tarzda kamaytirish va soliqdan imtiyozlar olish imkoniyatlari biznes uchun foydali bo'lishi mumkin.

3. **Iste'molchilar:** QQS to'langanda mahsulot va xizmatlar qiymati ortadi, ammo soliq stavkalarining adolatli va to'g'ri qo'llanishi iste'molchilar uchun zararni kamaytiradi. Shuningdek, QQS qaytarilishi (masalan, eksportchilar uchun) mahsulot va xizmatlarning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Umumiy qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solgi to'lanishi jarayonida davlat, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar va iste'molchilar o'zaro manfaatlarga ega bo'ladi. Lekin oxir-oqibatda to'langan soliqdan asosiy manfaat – davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/10323>
2. <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/28091>
3. <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/28719>
4. <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/downlo%E2%80%A6/>
5. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1061951804000151/>
6. Уразматов Ж. Қўшилган қиймат солиғининг бюджет даромадлари шаклланишидаги ўрни ва мазкур солиқни бюджетга ундириш тартибининг таҳлили //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 35-38.